

## KOREYA RESPUBLIKASI TASHQI SIYOSATINING USTUVOR YO‘NALISHLARI

**Ergasheva Nozima**

*Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti  
“Xalqaro munosabatlar” yo‘nalishi 3-kurs talabasi*

### ANNOTATSIYA

*Mazkur maqolada Koreya Respublikasi tashqi siyosatining ustuvor yo‘nalishlari, ularning shakllanish omillari hamda zamonaviy xalqaro munosabatlar tizimidagi o‘rni tahlil qilinadi. Xususan, AQSH bilan strategik ittifoqchilik, Shimoliy Koreya bilan munosabatlar, Osiyo-Tinch okeani mintaqasidagi diplomatik faollik, iqtisodiy diplomatiya va xavfsizlik masalasining tashqi siyosatdagi ahamiyati yoritib beriladi. Shuningdek, Koreya Respublikasining global siyosiy jarayonlardagi ishtiroki, xalqaro tashkilotlar doirasidagi faoliyati va ko‘p tomonlama hamkorlik mexanizmlariga alohida e‘tibor qaratiladi.*

**Kalit so‘zlar:** *“O‘zaro mudofaa to‘g‘risidagi shartnoma”, harbiy ittifoq, xavfsizlik strategiyalari, “Yaxshi qo‘shnichilik”, strategik hamkor, iqtisodiy hamkorlik, “tinch ikki davlat”, energetik xavfsizlik, ATES, ASEAN+3.*

### KIRISH

Xalqaro munosabatlar tizimining asosiy aktori sifatida har bir davlat milliy manfaatlardan kelib chiqqan holda tashqi siyosiy faoliyatni amalga oshiradi. Milliy manfaatlar asosida ustuvor yo‘nalishlar belgilab olinadi. Bu yo‘nalishlar davlatning xalqaro maydonda qaysi davlatlar, tashkilotlar va muammolar bilan eng ko‘p shug‘ullanishini belgilovchi strategik yo‘nalishlardir. Zamonaviy davrda tashqi siyosatning ustuvor yo‘nalishlari ko‘p qirrali va dinamik xususiyatga ega bo‘lib, ular nafaqat an‘anaviy xavfsizlik masalalarini, balki iqtisodiy hamkorlik, energetika xavfsizligi, ekologik muammolar, kiberxavfsizlik va madaniy-gumanitar aloqalarni ham qamrab oladi. Shuning uchun, davlatlar o‘z tashqi siyosatini shakllantirishda ko‘pincha bir nechta yo‘nalishlarni uyg‘unlashtirishga va muvozanatni ta‘minlashga intiladi.

Shu jumladan, Osiyo-Tinch okeani mintaqasi bugungi kunda xalqaro siyosatning eng muhim geostrategik hududlaridan biri sifatida e‘tirof etilmoqda. Mazkur mintaqada yirik iqtisodiy va harbiy-siyosiy kuchlarning manfaatlari to‘qnashuvi, xavfsizlik masalalari hamda iqtisodiy hamkorlik jarayonlari alohida ahamiyat kasb etadi. Aynan shunday murakkab siyosiy muhitda Koreya Respublikasi

mintaqaning faol va ta'sirchan davlatlaridan biri sifatida o'z tashqi siyosatini izchil ravishda rivojlantirib bormoqda.

### **ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR**

Koreya Respublikasi tashqi siyosatining ustuvor yo'nalishlarini tadqiq etishda xorijiy va mahalliy olimlarning ilmiy ishlari, rasmiy hujjatlar, strategik konsepsiyalar hamda xalqaro tashkilotlar materiallaridan keng foydalanildi. Tadqiqotning nazariy va amaliy asoslarini shakllantirishda, avvalo, Koreya Respublikasi va AQSh o'rtasidagi ittifoqchilik munosabatlarini yorituvchi rasmiy manbalar muhim ahamiyat kasb etdi. Jumladan, 1953-yildagi "Amerika Qo'shma Shtatlari va Koreya Respublikasi o'rtasidagi o'zaro mudofaa shartnomasi" shartnomasi, "AQSh-Koreya Respublikasi ittifoqining mudofaa strategiyasi" hamda "Yun Sok Yol ma'muriyatining milliy xavfsizlik strategiyasi" hujjatlarida Koreya Respublikasining xavfsizlik strategiyasi va AQSh bilan harbiy-siyosiy hamkorligining asosiy yo'nalishlari ochib berilgan.

Koreya Respublikasining zamonaviy tashqi siyosiy strategiyalari va mintaqaviy diplomatiyasini tahlil qilishda Un He Von va Chje Ho Chun kabi tadqiqotchilarning ilmiy ishlari muhim nazariy manba bo'lib xizmat qildi. Xususan, Un He Von "Hokimiyat almashinuvidan keyingi Janubiy Koreya tashqi siyosati: pragmatik diplomatiyaning yuksalishi" nomli asarida Koreya Respublikasi tashqi siyosatida pragmatik diplomatiyaning kuchayishini tahlil qilgan bo'lsa, Chje Ho Chun "Janubiy Koreya-Xitoy munosabatlari: ortib borayotgan o'zaro bog'liqlik va kuchayayotgan noaniqliklar" asarida Janubiy Koreya va Xitoy o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik hamda strategik noaniqliklarni tadqiq etgan.

Shuningdek, mahalliy tadqiqotchilar orasida S. Bo'ronovning "Sharq" kitobida, G.Dushayeva hamda A.A. Sharapovning ilmiy dissertatsiya ishlari alohida ahamiyatga ega bo'lib, ularda Osiyo-Tinch okeani mintaqasidagi geosiyosiy jarayonlar hamda Koreya Respublikasining mintaqaviy siyosati tahlil qilingan.

Mazkur maqolada tarixiy, qiyosiy va tizimli tahlil usullaridan foydalanilgan.

### **NATIJALAR**

Koreya Respublikasi milliy manfaatlardan kelib chiqqan holda tashqi siyosatining bir qancha muhim ustuvor yo'nalishlari belgilab olgan. Davlat tashqi siyosatining ustuvor yo'nalishlari dinamik xususiyatga ega bo'lib, prezidentlar almashganda ustuvor yo'nalishlar ham o'zgarib turadi. Lekin bu o'zgarish bir-biridan keskin farq qilmaydi. Asosiy ustuvor yo'nalishlardan biri bu AQSh bilan ittifoqchilik siyosati hisoblanadi. Mintaqada Shimoliy Koreya xavfi mavjud ekan bu yo'nalish o'z ustuvorligini yo'qotmaydi. Koreya Respublikasi Amerika Qo'shma Shtatlari bilan harbiy-iqtisodiy masalalarda birgalikda ish olib borish, KXDR yadro va raketa

sohasidagi davom etayotgan ishlanmalari xavfiga qarshi turish, Koreya yarim orolida barqarorlik va xavfsizlikni saqlash, harbiy hamkorlikni kuchaytirish, qo'shma harbiy mashqlarni ko'paytirish va AQShning mintaqada mustahkam harbiy yordami bilan ta'minlashni maqsad qilgan bo'lib, bu yondashuv Shimoliy Koreya agressiyasidan to'xtatuvchi vosita va Janubiy Koreya fuqarolarini tinchlantirish vositasi sifatida qabul qilinadi.

Koreya Respublikasi va AQSh o'rtasidagi harbiy ittifoqning asosi "O'zaro mudofaa to'g'risidagi shartnoma" hisoblanadi. Ushbu hujjat 1953-yil 1-oktyabrda, Koreya urushi yakunlangach, Vashingtonda imzolangan va 1954-yil 17-noyabrdan rasman kuchga kirgan [1]. Shartnomaga ko'ra, agar tomonlardan biri Tinch okeani mintaqasida tashqi qurolli hujumga uchrasa, har ikki davlat umumiy xavfni bartaraf etish uchun o'z konstitutsiyasiga muvofiq harakat qilish majburiyatini oladi. Shartnoma AQShga Janubiy Koreya hududida o'z quruqlik, havo va dengiz kuchlarini joylashtirish huquqini beradi. AQSh Mudofaa vazirining 2023-yildagi bayonotiga ko'ra, mamlakatda taxminan 28 500 nafar amerikalik harbiy xizmatchi bor [2]. Shartnoma muddatsiz hisoblanadi. Agar tomonlardan biri uni bekor qilmoqchi bo'lsa, bu haqida bir yil oldin xabar berishi kerak. Ikki davlat har 2-3 yilda "Maxsus choralar to'g'risidagi kelishuv" ni imzolaydi. Masalan, 2024-yilda imzolangan 12-kelishuvga ko'ra, Koreya 2026-yilda AQSh qo'shinlarini saqlash uchun taxminan 1,19 milliard dollar ajratishi kerak [3]. Ittifoq doirasida har yili "Freedom Shield" kabi yirik qo'shma harbiy mashg'ulotlar o'tkazib kelinadi. 2023-yilda "Vashington deklaratsiyasi" qabul qilinib, unda AQSh Koreya Respublikasini har qanday hujumdan, jumladan, yadroviy hujumdan himoya qilish kafolatini yana bir bor tasdiqladi [4]. Shimoliy Koreya harbiy harakatlarining borgan sari kuchayishi Koreya Respublikasi-AQSh ittifoqini yanada kuchaytirmoqda. Hozirgi prezident ham oldingi prezidentlar singari ittifoqchilik masalalarini ustuvor yo'nalishlardan biri sifatida belgilagan. Shuningdek, faqatgina harbiy masalarda emas, balki iqtisodiy sohada ham hamkorlikni yuqori darajada olib borish maqsad qilingan. Koreya Respublikasi AQSh bilan savdo aylanmasi, investitsiya kiritish va texnologiya import-export qilish ko'lamini imkon qadar kengaytirishga harakat qiladi. Shu jumladan, 2023-yil aprel oyida bo'lib o'tgan Koreya Respublikasi-AQSh sammitida davlat rahbarlari ikki davlatning Milliy xavfsizlik kengashlari o'rtasida iqtisodiy xavfsizlik va ilg'or texnologiyalar sohasidagi hamkorlikni yanada mustahkamlash maqsadida "Keyingi avlod muhim va rivojlanayotgan texnologiyalar bo'yicha muloqot"ni tashkil etish g'oyasi ilgari surilgan. Mazkur texnologiyalar alyansi asosida Koreya Respublikasi va AQSh ilg'or sanoat tarmoqlarida ta'minot zanjiri ittifoqini shakllantirishni maqsad qilgan. Barqaror va mustahkam ta'minot zanjiri

hamda tartibli faoliyat yurituvchi valyuta bozori har ikki davlatning barqaror iqtisodiy o'sishi va moliyaviy barqarorligi uchun muhim omillardir [5]. Bundan tashqari, yarimo'tkazgichlar va batareyalar kabi strategik tarmoqlarda koreys va amerikalik kompaniyalar o'rtasidagi o'zaro investitsiyalar kengayishi ikki davlat fuqarolari uchun o'zaro manfaat va iqtisodiy farovonlik olib keladi.

Ayni paytda iqtisodiy sohadagi hamkorlik masalasi oldingi davrga nisbatan biroz farqli jihatlari bilan ajralib turadi. Tramp ikkinchi boshqaruvi davrida joriy qilingan savdo tariflari va AQSh-Xitoy savdosidagi murakkabliklar Janubiy Koreya va Qo'shma Shtatlar o'rtasidagi tashqi iqtisodiy aloqalarni qayta ko'rib chiqish kerakligini anglatmoqda. Hozirgi davlat rahbari ikkila tomon manfaatlaridan kelib chiqqan holga iqtisodiy hamkorlikni qayta rivojlantirishga izchil harakat qilmoqda.

Li Chje Myon ma'muriyati Koreya Respublikasi-AQSh ittifoqidagi ishonch poydevorini tiklash va uni kelajakka yo'naltirilgan, keng qamrovli strategik ittifoqqa aylantirish niyati borligini e'lon qildi. Shuningdek, davlat rahbari Koreya Respublikasi-AQSh ittifoqining mustahkam poydevoriga asoslangan pragmatik diplomatiyani amalga oshirishga sodiqligini ham ta'kidlagan. Shimoliy Koreyaning yadroviy va raketa salohiyatining rivojlanishi va Koreya yarim orolidagi xavfsizlikka jiddiy tahdidlar mavjudligini hisobga olgan holda, Koreya Respublikasi hukumati Koreya Respublikasi-AQSh ittifoqining yarim oroldagi xavfsizlik muvozanatlashtiruvchisi sifatidagi rolga doimiy ravishda ustuvor ahamiyat beradi.

Koreya Respublikasi va AQSh o'rtasidagi diplomatiya, xavfsizlik, iqtisodiyot va savdo sohalaridagi dolzarb masalalarni o'zaro manfaatli tarzda hal qilish Li Chje Myon ma'muriyati dastlabki bosqichlarida e'tibor qaratishi kerak bo'lgan asosiy masalalar kun tartibidadir [6]. Xususan, Tramp ikkinchi prezidentlik davridagi ma'muriyat mudofaa xarajatlarini taqsimlash badallarini oshirish uchun savdolashish vositasi sifatida Koreyadagi AQSh kuchlarini olib chiqishdan foydalanishi, AQSh kuchlarini qisman kamaytirishi yoki Koreyadagi AQSh kuchlarini olib chiqishi va qayta joylashtirishi kabi ehtimollarning mavjudligi Li Chje Myon ma'muriyatini ikki tomonlama munosabatlarni qayta ko'rib chiqishga undamoqda.

Koreya Respublikasi Xitoy bilan aloqalarga ham muhim ahamiyat qaratadi. Xususan, Shimoliy Koreyaning yadroviy dasturini jilovlash va yarim orolda tinchlikni saqlash masalasida Seul har doim Pekinning diplomatik ta'sirini muhim deb bilgan. Aloqalar "Yaxshi qo'shnichilik" shartnomasidan (1992) boshlanib, "XXI asr uchun hamkorlik" (1998), "Har tomonlama hamkorlik" (2003) va oxir-oqibat "Strategik hamkorlik" (2008) shartnomalarining qabul qilinish darajasigacha ko'tarildi [7]. Ushbu strategik maqom hozirgacha rasmiy asos sifatida saqlanib qolmoqda. Bu huquqiy asoslar yordamida Xitoy bilan do'stona aloqalarni izchil

rivojlantirish va har tomonlama mustahkamlash har ikkala mamlakat manfaatlariga mos keladi hamda mintaqada barqarorlik va xavfsizlikning mustahkamlanishiga xizmat qiladi. Savdo-iqtisodiy aloqalarni va investitsion hamkorlikni yanada kuchaytirish hamda diversifikatsiya qilish, mintaqada tinchlik va barqarorlikni saqlash va ikki davlat o'rtasidagi munosabatlarning muhim jihatidir. Xitoy Janubiy Koreyaning savdodagi eng yirik hamkori hisoblanadi. Biroq, Xitoyning Shimoliy Koreya bilan iliq munosabatlarini inobatga olgan holda ba'zan Xitoyga nisbatan ehtiyotkorona siyosat ham olib borilgan.

Zamonaviy davrga kelib esa Sharqiy Osiyo mintaqasida AQSh-Xitoy raqobatining kuchayishi fonida Koreya Respublikasining yangi hukumati muvozanatni saqlash maqsadida pragmatik siyosat orqali Xitoy-Janubiy Koreya munosabatlarini qayta ko'rib chiqmoqda. Li Chje Myonning Xitoyga nisbatan siyosati zamonaviy Janubiy Koreya tashqi siyosatidagi asosiy vazifasi – ichki siyosatda kuchayib borayotgan aksil-Xitoy kayfiyatlarini nazorat qilish bilan birga, Xitoy bilan iqtisodiy jihatdan zarur bo'lgan hamkorlikni saqlab qolishdir. Chunki Xitoy Janubiy Koreyaning eng yirik savdo hamkorlaridan biri hisoblanadi va turizm, eksport hamda ishlab chiqarish zanjirlarida muhim rol o'ynaydi. Shu sababli Li Chje Myon tashqi siyosatda pragmatik yondashuvni tanlab, iqtisodiy aloqalarni tiklashga harakat qilmoqda. Masalan, xitoylik turistlar uchun vizasiz rejim joriy etilishi iqtisodiyotni qo'llab-quvvatlashga qaratilgan amaliy qadamdir [8]. Biroq bu qaror ichki siyosatda qarshiliklarga uchradi, chunki jamiyatda Xitoyga nisbatan ishonchsizlik yuqori darajada saqlanib qolmoqda. Prezident siyosati ikki yo'nalishda harakat qiladi: bir tomondan iqtisodiy manfaatlardan kelib chiqib Xitoy bilan aloqalarni rivojlantirish, ikkinchi tomondan esa ichki siyosiy bosimni nazorat qilish. Bu yondashuv Janubiy Koreyaning qat'iy blok siyosatidan ko'ra, ko'proq moslashuvchan va strategik mustaqillikka asoslangan diplomatiyaga o'tayotganini anglatadi.

Qo'shni davlat Yaponiya bilan aloqalar har doim Janubiy Koreya tashqi siyosatining muhim yo'nalishlaridan biri bo'lib kelgan. Janubiy Koreya tashqi siyosatida Yaponiya ham eng yaqin strategik hamkor, ham murakkab tarixiy muammolar manbasi hisoblanadi. 1965-yilda AQSh vositachiligida "Yaponiya va Koreya o'rtasidagi munosabatlar to'g'risidagi tayanch shartnoma" imzolanganidan so'ng diplomatik aloqalar yo'lga qo'yilgan. Koreya Respublikasi Yaponiya bilan savdo aloqalarini o'rnatish, rivojlantirish, diversifikatsiya qilish, Yaponiyadagi oz sonli koreys millatining maqomini belgilash va ikkala davlat o'rtasidagi tarixiy munosabatlarni ko'rib chiqish masalalarini muhim deb biladi. Shuningdek, 2014-yil dekabrda Yaponiya, AQSh va Janubiy Koreya mudofaa rasmiylari Tokio va Seul

o'rtasida Shimoliy Koreya yadro raketa ishlanmalari to'g'risida ma'lumotlar almashinuvi to'g'risidagi shartnomani izolashgan [9]. Bu AQSh bilan uch tomonlama ittifoq doirasida Shimoliy Koreya tahdidiga qarshi turish va iqtisodiy hamkorlikka qaratilgan. Yaponiya bilan uzoq tarixiy da'volarning mavjud ekanligi Janubiy Koreya juda ehtiyotkorona tashqi siyosat olib borganini ko'rsatadi.

So'nggi yillarda esa Janubiy Koreyaning Yaponiyaga nisbatan munosabatlarida sezilarli o'zgarish kuzatilmoqda. 2025-yilda Pusan shahrida Yaponiya sobiq Bosh vaziri Shigeru Ishiba va Koreya Respublikasi Prezidenti Li Chje Myon o'rtasida o'tkazilgan uchrashuv ikki davlat tarixida yangi davrni boshlab berdi [10]. Ikki rahbarning birgalikda qabul qilgan bayonoti ham shuni ko'rsatadiki, tomonlar endilikda nafaqat tarixiy kelishmovchiliklarni yengishga, balki umumiy xavfsizlik va iqtisodiy muammolarni hal etishda hamkorlikni kuchaytirishga tayyor ekanligini ko'rish mumkin.

Yana bir muhim yo'nalishlardan biri qo'shni davlat Koreya Xalq Demokratik Respublikasi bilan munosabatlar hisoblanadi. KXDR dan keladigan yadroviy xavfning mavjud ekanligi Koreya Respublikasi milliy xavfsizligi, hududiy yaxlitlik va mintaqaviy barqarorlik uchun bu masalaning muhimligini yanada oshiradi. Shimoliy Koreyaning yadro qurollari dasturi va ballistik raketa imkoniyatlari Janubiy Koreya uchun yuqori darajali xavf sifatida qaraladi. Shimoliy Koreyaning yadro qurollanish bo'yicha olib borayotgan amaliyotlari ko'lami kengayib bormoqda. Shu sababli Seul siyosatining ustuvor vazifalari qatoriga harbiy eskalatsiyani oldini olish, yadro tahdidini cheklash va uzoq muddatda tinchlik rejimini shakllantirish kiradi.

Mazkur yo'nalish Koreya Respublikasining barcha liderlari uchun muhim ahamiyatga ega bo'lib kelgan, lekin ular o'rtasida bu yo'nalishni olib borish bo'yicha amaliy jihatdan sezilarli farqlar kuzatiladi. Masalan, ayrim prezidentlar yaqinlashuv va hamkorlik siyosatini ilgari surib, iqtisodiy va gumanitar aloqalarni rivojlantirish orqali ishonchni oshirishga harakat qilgan bo'lsa, boshqalari tiyib turish va sanksiyalar orqali bosimni kuchaytirishni afzal ko'rgan. Biroq bu farqlar strategik maqsadni o'zgartirmaydi. Koreya yarimorolida barqarorlikni ta'minlash va xavfsizlik tahdidlarini minimallashtirish har qanday hukumat uchun ustuvor bo'lib qoladi. Shu jihatdan Shimoliy Koreya omili Janubiy Koreya tashqi siyosatining asosiy yo'nalishi bo'lib qoladi.

Bu masalani Janubiy Koreya butunlay bartaraf etolmasa ham, turli xil yo'nalishdagi tashqi siyosiy faoliyat orqali nazoratda ushlab turishga va kamaytirishga harakat qiladi. Bunda, ayniqsa, prezidentlar tomonidan ishlab chiqilgan siyosatlar ahamiyatlidir. Misol uchun, Kim De Jun ma'muriyati (1998–2003) o'zining “Quyosh siyosati” orqali tub burilish yasadi [11]. Ushbu siyosat

qarama-qarshilik va tiyib turishdan ko‘ra yarashuv, hamkorlik va bosqichma-bosqich normallashtirishni ustuvor deb bildi. Kim De Jun birlashuvni darhol amalga oshiriladigan maqsad sifatida emas, balki tinch hamkorlik va institutlarni shakllantirishga asoslangan bosqichli jarayon sifatida ko‘rdi. Bunga 2000-yil iyun oyidagi tarixiy koreyalararo sammit va Qo‘shma deklaratsiya yaqqol misol bo‘la oladi. Ushbu siyosat nafaqat amaliy tashabbus, balki strategik muhim loyiha bo‘lib, KXDR ni doimiy tahdid emas, balki potensial hamkor sifatida talqin qilishga, Janubiy Koreyani esa oddiy ittifoqdosh emas, balki mintaqaviy normativ tashabbuskor sifatida qayta pozitsiyalashga xizmat qildi.

Keyingi prezident Ro Mu Hyun (2003–2008) esa ushbu strategiyani “Tinchlik va farovonlik siyosati” orqali davom ettirdi. Bu yondashuv nafaqat Shimoliy Koreya bilan yarashuvni chuqurlashtirishni, balki Seulning Sharqiy Osiyoda “mintaqaviy muvozanatlashtiruvchi” sifatida rol o‘ynash istagini ham aks ettirdi. Ushbu strategiya ittifoq doirasida mustaqillikni oshirishga intilishning kuchayganini ko‘rsatdi va ba‘zi holatlarda Jorj Bush ma‘muriyati bilan kelishmovchiliklarga sabab bo‘ldi, chunki u Janubiy Koreyaning tashqi siyosiy yo‘nalishiga oid an‘anaviy AQSh qarashlariga zid edi. Li Myon Bak (2008–2013) va Park Geun He (2013–2017) davridagi konservativ boshqaruv yillarida Shimoliy Koreyaga nisbatan tiyib turishga asoslangan siyosat ustuvor bo‘lgan bo‘lsa, Mun Je In (2017–2022) ma‘muriyati yana yaqinlashuv siyosatiga qaytishni ko‘rsatdi [12]. Mun davridagi tashqi siyosat Koreya progressiv yaqinlashuvdan ko‘ra yanada ko‘p o‘lchovli va moslashuvchan yondashuvni namoyon etdi. Keyingi prezident Yun Sok Yol o‘zining milliy xavfsizlik va tashqi siyosat bo‘yicha “Erkinlik, tinchlik va farovonlikka hissa qo‘shadigan global o‘zak davlat” bo‘lish konsepsiyasini taqdim etganda ushbu hujjat Milliy xavfsizlik strategiyasining tamoyillariga asoslanishini ta‘kidlab o‘tgan [13]. Yunning diplomatik sa‘y-harakatlarini kuchli mudofaa pozitsiyasi bilan uyg‘unlashtirgan muvozanatli yondashuvini qo‘llashi ahamiyatlidir. Bunga Shimoliy Koreya bilan muloqot uchun ochiq kanallarni saqlash, shu bilan birga Janubiy Koreyaning raketaga qarshi mudofaa qobiliyatini oshirish va har qanday ehtimoliy harbiy hujumlarga tayyorligini ta‘minlash kiradi. Yunning siyosati Shimoliy Koreya tomonidan bo‘ladigan hujumlarni oldini oladigan barqaror xavfsizlik muhitini yaratishga qaratilgan [14].

So‘nggi yillarda Pxenyan tomonidan o‘tkazilayotgan turli xil harbiy qurollar amaliyotlari Seulning xavfsizligiga nisbatan xavotirlarini yanada oshirmoqda. Yaqinda hokimiyatga kelgan Li Chje Myon ham bu masalani o‘z tashqi siyosatining ustuvor yo‘nalishi sifatida belgiladi. U hozirda “Pragmatik tashqi siyosat” deb nomlanuvchi siyosati bo‘yicha KXRD masalasini qayta ko‘rib chiqmoqda. U va

uning ma'muriyati Shimoliy Koreya siyosatiga ham pragmatik yondashuvni e'lon qilmoqda [6]. Unga ko'ra, Shimoliy Koreyani muloqot va yarashuvdagi hamkor sifatida ko'rish asosiy maqsad qilib olinadi. Li birlashuv tushunchasiga kam e'tibor bergan. 2025-yilda BMT Bosh Assambleyasidagi asosiy nutqida prezident "END" (Exchange-Normalization-Denuclearization) deb nomlangan, ya'ni almashish, normallashtirish va yadrosizlantirish, ikki Koreya davlatini alohida siyosiy birliklar sifatida qabul qiluvchi "tinch ikki davlat" ma'nosini anglatuvchi tashabbusini ilgari suradi [8].

Bundan tashqari, iqtisodiy, investitsiyaviy hamkorlik jihatdan Koreya Respublikasi Yevropa Ittifoqi davlatlari, xususan, Fransiya, Germaniya kabi davlatlar bilan muloqotni kuchaytirish masalalarini ham ustuvor deb hisoblaydi. Xalqaro darajada integratsiya qilish orqali Koreya Respublikasida demokratlashtirish jarayonini jadallashtirish, fuqarolarning erkinligi masalalarini rivojlantirish maqsad qilingan.

Tabiiy resurslari kam bo'lgan Janubiy Koreya uchun energetik xavfsizlikni ta'minlash masalasi juda ahamiyatlidir. Shu sababli energetika sohasida Yaqin Sharq mintaqasidagi davlatlar bilan ham aloqalarga alohida e'tibor beriladi. Koreya Respublikasi mintaqaning energiyaga boy davlatlari, xususan, Qatar, Bahrayn, Saudiya Arabistoni Podshohligi va BAA kabi davlatlar bilan energetika sohasida hamkorlikni yuksaltirishga intiladi. Jumladan, mamlakat Saudiya Arabistoni Podshohligi bilan 500 milliard dollarlik "NEOM" deb ataluvchi dastur bo'yicha hamkorlikda faoliyat yuritishmoqda [15]. Mazkur loyiha orqali ikki davlat o'rtasida manfaatli muloqot yuzaga kelmoqda.

Koreya Respublikasining Rossiya Federatsiyasi bilan munosabatlari murakkablik kasb etib kelgan. Rossiya va Shimoliy Koreya o'rtasidagi munosabatlarning mustahkamligi Rossiya-Janubiy Koreya munosabatlarining rivojlanishini ortga surib kelgan. Lekin endilikda Koreya Respublikasi ikki tomonlama munosabatlarni qayta ko'rib chiqishni rejalashtirmoqda.

Shuningdek, Koreya Respublikasi xalqaro tashkilotlar va tashabbuslarda faol ishtirok etadi, jumladan BMT, G20, ASEAN va Osiyo-Tinch okeani iqtisodiy hamkorligi kabi xalqaro tashkilotlarda o'z o'rnini mustahkamlashga harakat qilmoqda. Koreya Respublikasining tashqi siyosati xalqaro kun tartibini shakllantirish va global darajada yechimlar topishda muhim rol o'ynaydi.

Qolaversa, madaniy almashinuv va "yumshoq kuch" siyosati orqali Koreya Respublikasi boy madaniy merosga ega bo'lib, kino, musiqa xususan K-pop, moda va milliy oshxona kabi sohalarda dunyo miqyosida mashhurlikka erishgan. Mamlakat tashqi siyosati o'z madaniyatini targ'ib qilish, madaniyatlararo almashinuvni

kengaytirish va “yumshoq kuch” vositalarini mustahkamlashga yo‘naltirilgan. Bu esa Koreya Respublikasiga boshqa davlatlar bilan yanada yaqin madaniy aloqalar o‘rnatish va o‘zining xalqaro nufuzini oshirish imkonini beradi [16].

Janubiy Koreya Birlashgan Millatlar Tashkilotida faol va nufuzli ishtirokchi hisoblanadi. Tashkilot doirasida davlat faoliyati mamlakat tashqi siyosati xalqaro aloqalarni mustahkamlash, diplomatik munosabatlarni rivojlantirish hamda iqlim o‘zgarishi, barqaror rivojlanish, terrorizm va qochqinlar muammosi, kiberxavfsizlik kabi global masalalar bo‘yicha pozitsiyalarni muvofiqlashtirishga qaratilgan. Koreya Respublikasi 2024-2025-yillar davomida mamlakat BMT Xavfsizlik Kengashining doimiy bo‘lmagan a‘zosi sifatida faoliyat olib brogan[17]. Qolaversa, tashkilot doirasidagi tinchlikparvar operatsiyalarda muntazam ishtirok etib kelmoqda. BMT ning barcha yo‘nalishlarida, bolalar va ayollar huquqlari, ayollar kamsitilishiga qarshi kurashish, tinchlik dasturlarida ayollarning siyosiy faoliyatini oshirish kabi masalalarda ildam bo‘lishga harakat qiladi. Koreya Respublikasi iqtisodiy rivojlanganlik ko‘rsatkichi bo‘yicha G20 davlatlari qatoridan o‘rin olgan. 1999-yildab boshlab G20 ning a‘zolaridan biriga aylangan bo‘lib, bu muloqot formati doirasida Koreya Respublikasi raqamli va texnologik yetakchilikni amalga oshirish, yashil o‘sish va energiya alamshinuvida xavfsizlik va barqarorlikni ta‘minlashni o‘z oldiga maqsad qilgan.

Koreya Respublikasi mintaqaviy yetakchiga aylanish salohiyati va intilishga ega. Shu o‘rinda, davlat mintaqaviy tashkilotlarda samarador faoliyat olib borishni maqsad qilgan. Osiyo-Tinch okeani iqtisodiy uyushmasi (ATES) 1989-yilda tashkil topgan bo‘lib, unga 13 mamlakat (ASEAN davlatlaridan oltitasi, AQSh, Kanada, Yaponiya, Avstraliya, Yangi Zelandiya va Koreya Respublikasi) kirgan. 1991-yili Seul uchrashuvida esa, tashkilotning deklaratsiyasi qabul qilindi va unda tashkilot faoliyatining asosiy vazifalari ko‘rsatib berildi [18]. Tashkilot asoschilaridan biri sifatida Koreya Respublikasi tashkilot doirasida mintaqa davlatlari orasida iqtisodiy hamkorlik va integratsiya jarayonlarni mustahkamlashda faol ishtirok etib kelmoqda. Inson resurslarini rivojlantirish, ishonchli va samarali sarmoyalar bozorini rivojlantirish, kelajak texnologiyalari ustida ishlash va iqtisodiy taraqqiyotning ekologik xavfsizligini ta‘minlash asosiy maqsad qilib olingan. 2017-yildan boshlab tashkilotdagi faoliyat yanada rivojlangan bo‘lib, bu “Erkin, tinch va farovon Hind-Tinch okeani strategiyasi” da o‘z aksini topgan. 2022-yil 11-noyabrda Kambodjada Osiyo-Tinch okeani iqtisodiy uyushmasi sammiti o‘tkaziladi va Koreya Respublikasi prezidenti tashabbusi bilan “Hind-Tinch okeani strategiyasi” qabul qilgan [19]. Bu tashkilot orqali davlat mintaqaviy va global darajada rolini oshirishga harakat qiladi.

Bundan tashqari, 2017-yilda Mun Che In tomonidan ilgari surilgan “Yangi Janubiy siyosat” bo‘yicha ASEAN davlatlari hamda Hindiston bilan aloqalarni mustahkamlashga qaratilgan. ASEAN va Hindiston bilan hamkorlikni rivojlantirishdan maqsad – savdo-iqtisodiy aloqalarni kengaytirish orqali AQSh va Xitoy iqtisodiyotiga haddan tashqari qaramlikni kamaytirish, kelajakda ushbu davlatlar tomonidan bosim o‘tkazilishi xavfini minimallashtirishdir [20]. Tashkilot bilan hamkorlik doirasi oldindan rivojlangan bo‘lib, ASEAN+3 (Yaponiya, XXR, Janubiy Koreya) va ASEAN bilan ikki tomonlama aloqalar orqali yagona bojxona, shuningdek, kelajakda ASEAN va Sharqiy Osiyo mamlakatlarini qamrab oluvchi iqtisodiy va valyuta makonini yaratish ushbu o‘zaro munosabatlarning maqsadi bo‘lgan [18].

### **XULOSA**

Umuman olganda, Koreya Respublikasi tashqi siyosiy faoliyati ustuvor yo‘nalishlari davlat milliy manfaatlaridan kelib chiqqan holda tanlanadi. Koreya Respublikasi tashqi siyosatining asosiy yo‘nalishlari Qo‘shma Shtatlar bilan ittifoqchilik, qo‘shni davlatlar – Xitoy, Yaponiya va Shimoliy Koreya davlatlar bilan iqtisodiy va savdo aloqalari, BMT, G20, ASEAN va ATEES kabi tashkilotlar bilan xalqaro hamkorlik hamda yadroviy tahdidga qarshi turish bilan belgilanadi. Ushbu yo‘nalishlar Koreya Respublikasining tashqi siyosatini mintaqaviy va global barqarorlik, iqtisodiy rivojlanish nuqtayi nazaridan muhim ahamiyatga ega.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI**

1. Mutual Defense Treaty Between the United States and the Republic of Korea. (1 October 1953). Washington. Avalon Project, Yale Law School. Retrieved from [http://avalon.law.yale.edu/20th\\_century/kor001.asp](http://avalon.law.yale.edu/20th_century/kor001.asp)
2. Defense Vision of the U.S.-ROK Alliance. (2023). U.S. Department of Defense. Retrieved from <https://www.war.gov/News/Releases/Release/Article/3586528/defense-vision-of-the-us-rok-alliance/>
3. Conclusion of the 12th Special Measures Agreement (SMA) between the ROK and the U.S. (2024) Ministry of Foreign Affairs of the Republic of Korea. Retrieved from [https://www.mofa.go.kr/www/brd/m\\_4080/view.do?seq=375481](https://www.mofa.go.kr/www/brd/m_4080/view.do?seq=375481)
4. Карахаджиоглу Э.Г. (19 Август 2025) Мусса М. США и Южная Корея начали совместные военные учения. Анадолу Агентысы. <https://www.aa.com.tr/ru/>
5. The Yoon Suk Yeol Administration’s National Security Strategy. (2023) Office of the Prezident Republic of Korea. – pp.46-47.

6. 글로벌 복합 위기의 시대, 이재명 정부의 대외 전략 방향. 평화재단. 2025.  
[https://www.pf.or.kr/research/sps\\_currntissue/view/763](https://www.pf.or.kr/research/sps_currntissue/view/763)
7. Jae H.Ch. South Korea-China Relations: Growing Interdependence, Rising Uncertainties. (June 2012) [The Johns Hopkins University](https://www.jstor.org/stable/42704787). Retrieved from <https://www.jstor.org/stable/42704787>
8. Eun H.W. (2026) South Korea's foreign policy after regime change: the rise of pragmatic diplomacy. The Swedish institute of international affairs, UI.SE. – P.8.
9. Bo'ronov S. (2025) Sharq: xavfsizlik va barqaror taraqqiyot muammolari – T.: – B.274-277.
10. Hyung.J.K. Kim.T.H. (2025) Japan and South Korea leaders commit to closer ties in their final summit. Associated Press. Retrieved from <https://apnews.com/article/south-korea-japan-lee-ishiba-trump-f88d9e611765b7627a27d27f10547cc7>
11. Jesse.M. (March, 2017) The sunshine policy of the South Korea. Stanford University. Retrieved from <http://large.stanford.edu/courses/2017/ph241/min2/>
12. Darcie D.V. (May 2025) The transformation of South Korean Progressive foreign policy. Carnegie endowment for international peace. – P.6
13. The Yoon Suk Yeol Administration's National Security Strategy. [https://overseas.mofa.go.kr/eng/brd/m\\_25772/view.do?seq=16&page=1](https://overseas.mofa.go.kr/eng/brd/m_25772/view.do?seq=16&page=1)
14. Dushayeva G.Z. (2024) Koreya Respublikasi va Markaziy Osiyo: hamkorlik tajribasi va zamonaviy bosqichdagi holati. Dissertatsiya, – T.: – B.27-28.
15. Joyce L., Soo H.CH. (17 November, 2022) South Korea, Saudi to boost ties on energy, defence; \$30 bln in deals signed. Reuters. Retrieved from <https://www.reuters.com/business/energy/skorean-firms-agree-build-hydrogen-plant-saudi-arabia-sources-2022-11-17/>
16. Киреева Л.С. (2023) Внешняя политика Республика Корея 2013-2022. Томск. – С.18.
17. Republic of Korea. United Nations Security Council. Retrieved from <https://main.un.org/securitycouncil/en/content/republic-korea>
18. Шарапов А.А. (2008) Осиё-Тинч океани минтақаси давлатлари Ўзбекистон Республикаси халқаро муносабатлари тизимида (ХХР, Япония, Жанубий Корея мисолида). Диссертация, – Т.: – Б.66-67.
19. The Republic of Korea's Foreign Policy Approach: From New Southern Policy to the Indo-Pacific Strategy. (August 2023) Indian Council of World Affairs. – pp.6-7.
20. Фархетдинова Э.Т. (2023) Современное геополитическое положение Республики Корея: на стыке интересов США и КНР. Конфликтология. nota bene. – С.63.